



BILIMLI YOSHLARNING DUNYO TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Inson va uning kamolotini ta'minlash teologik, falsafiy, psixologik, etnografik, tibbiy, huquqiy, antropologik, iqtisodiy, sotsiologik ta'limotlarning asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan bir qator tarixiy manbalar o'rganilib, empirik tadqiqotlar o'tkazilgan va ularning xulosalari asosida asarlar yozilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, yoshlar, taraqqiyot, metod, tadqiqot.

KIRISH

Individual ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ta'lim- tarbiyaning oldida turgan hozirgi davrdagi bosh vazifa bo'lib qolmoqdaki, bu vazifani bajarish turli darajalarda ta'lim va tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchilarni zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi bilan birga, ulardan alohida fidoyilik ham talab qiladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “...biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik.

...Sharq donishmandlari aytganidek, “**Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!**”



Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"
[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tahlillarga ko'ra, so'nggi uch yilda tayanch doktorantura va doktorantura bitiruvchilarining dissertatsiya ishi himoyasi 54,7 foizni tashkil etgan. Magistrlar ilmiy faoliyatni davom ettirishi bo'yicha yetarlicha shart-sharoitlar yaratish muammosi to'laqonli yechim topmaganligini, shuningdek, mamlakat mintaqalaridagi ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish past darajada qolayotganligi, dissertatsiya himoyalarining 66 foizi Toshkent shahriga, qolgan 34 foizigina viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelayotganligi"[2] ta'kidlangan. Demak, mutaxassis olimlar va soha fidoyilari oldida ilm-fan va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga erishish uchun uchrayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish uchun qanday vazifalarni bajarish lozim? degan muammoli masala turibdi. Bunda ilm-fan va ta'lim fidoyilarni tarbiyalash, sifatli ta'lim berish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish muhim. Masalaga siyosiy fanlar doktori T.Alimardonov o'z munosabatini quyidagicha bayon etib o'tgan: "Muammo shundan iboratki, bizda ta'lim deyilganda, faqat ta'lim tizimi muassasalari tushuniladi. Shu sababdan ta'lim ijtimoiy hayotdan va ishlab chiqarish munosabatlaridan ayro holda vujudga kelgan. Ta'lim-tarbiyaning uzviyligi nafaqat o'quv jarayonlarining uzviyligi bilan, balki butun jamiyatning barcha ishlab chiqarish munosabatlari bilan uyg'un ta'minlanishi lozim. Ta'limning falsafasi jamiyatning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'z ifodasini topishi kerak. Ta'limning maqsadi, aslida, jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bizda esa, jamiyat o'z tartibotlari bilan, ta'lim ham o'z qoidalari doirasida faoliyat yuritmoqda. Bunday nomutanosiblik natijasida salohiyat va iqtidor jamiyatda o'z qiymatini topmaydi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi o'quvchiga adolatli va jasur bo'l deb tarbiya beradi, lekin ma'naviy asoslari shakllanmagan jamiyatning tizimi



bunday fazilatlarni qabul qila olmaydi yoki rag‘batlantirmaydi. Natijada jamiyatning ma’naviy va moddiy hayoti o‘rtasida katta jarlik va tafovutlar vujudga keladi”[3].

Ta’kidlash lozimki, insonlarda qaysi sifat va fazilatlarni shakllantirish muhimligini, jamiyatda turli shakl va ko‘rinishlarda ifodalangan ijtimoiy- madaniy muammo belgilab beradi. Aniqrog‘i, yuzaga kelgan muammoni sababi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillarning mazmunini aniqlanishi natijasida, bu holat boshqa takrorlanmasligini ta’minlash uchun jamiyat ijtimoiy buyurtmachi sifatida ta’lim-tarbiya institutiga bir qator vazifalarni bajarishini belgilab beradi.

Ta’lim, jamiyatning har bir sohasini tizim tarzida amal qilishi va rivojlanish dinamikasini ta’minlash uchun amal qilib, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish, takomillashtirish, ularni diagnostikasini amalga oshirish, prognoz qilish, sohaga qaratilgan tahdid, xavf va xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni zararlantirishning usul va vositalaridan foydalanish tartibini aniqlab beradi.

Tarbiya esa, ularni amaliyotda qo‘llash davomida qaysi me’yoriy tamoyillarga amal qilishi, alohida inson va jamoa (guruh) a’zolari uchun maqbulekanligini ta’minlaydi.

Ta’lim – tarbiya taraqqiyot poydevori hisoblanib, ishlab chiqarish, fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etilishi natijasida takomillashtirishni taqozo etadi. Takomillashtirish mexanizmini esa ilmiy tadqiqotlarning natijasi belgilab beradi. Bu o‘z navbatida umummetodologik asosni belgilab beruvchi falsafa, aniqrog‘i ta’lim falsafasi doirasida bajariladigan tadqiqotlarning natijasidan foydalanishni talab etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ta’lim jarayonining ishtirokchilari va ta’lim jarayonini rejalashtirib, uni boshqariladiganlarning faoliyati tizimida yetakchi faoliyatni ajratib, ularni motivatsiyasini ta’minlash uchun ta’lim psixologiyasi doirasida bajarilgan tadqiqotlarning xulosalaridan foydalanib pedagogik chora- tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ta’limga buyurtma beradigan korxona, turli muassasalar, umuman jamiyat ta’lim



institutidan nimalarni kutishini, qanday soha mutaxassisini tayyorlab berishni aniqlash uchun ta'lim sotsiologiyasi hamda ta'lim huquqi kabi fan sohalarining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi. Ko'rinib turibdiki, bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar boshqa bir ijtimoiy makonda emas, balki muammo vujudga kelgan, tadqiqot natijalari joriy holatni o'rganish natijasida qo'lga kiritgan bo'lishi lozim.

Ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashda ularning uzviyligiga, ya'ni bir fan sohasida bajarilishi mo'ljallangan ilmiy tadqiqot, ikkinchi fan sohasida bajariladigan tadqiqotni sohaviy to'ldirib, yaxlit majmuani vujudga keltirishi uchun xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi- <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Norboeva T. Aksariyat ilmiy tashkilotlar fan yo'nalishlarida monopolistga aylangan - <https://kun.uz/news/2020/09/11/aksariyat-ilmiy-tashkilotlar-fan-yonalishlarida-monopolistga-aylangan-tanzila-norboyeva>
3. Alimardonov T. Ta'limning milliy falsafasi.- <https://telegra.ph/talimning-milliy-falsafasi-09-18>
4. Shemonchuk D.S. Makromedia v obrazovanii. - M.: MIREA, 2012. – 168 s. elektronnoe izdanie, nomer gosregistratsii 0321203514 ot 24.10.2012 - ISBN 978;5;7339;1.
5. Xusrav Dehlaviy she'riyatidan. - Toshkent, 1979. –B. 120.
6. Manaxova I.V. Riski informatizatsii obrazovaniya // J. Informatsionnaya bezopasnost regionov. 2012, № 2 (11). – S. 47-51.